



# ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-4, (April) 2024  
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

**GAFUROV Farxod Rashidovich**  
*Bojxona instituti katta o'qituvchisi*  
*yu.f.b.f.d. (PhD)*  
*mustaqil izlanuvchi*

## **BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNI FOSH ETISHDA QO'LLANILADIGAN KRIMINALISTIK USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI**

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur ilmiy maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llaniladigan kriminalistik usullarni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, kriminalistik usullar tavsifi, kriminalistik usullarni takomillashtirish bo'yicha o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlari va fikrlari, kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarni fosh etishga qaratilgan kriminalistik metodlarni takomillashtirish choralari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** bojxona sohasidagi jinoyatlar, kriminalistik metodlar, kibermakon, jinoyat protsessi, kiberforenzika, ijtimoiy tarmoqlar, profil, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish, Jinoyat kodeksi, sud-tibbiyot ekspertizasi, Jinoyat-protsessual kodeksi, raqamli dalillar.

## **МЕРЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ ПРИ РАСКРЫТИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной научной статье рассмотрены вопросы совершенствования криминалистических методов, используемых при раскрытии преступлений в таможенной сфере. В частности, освещены описание криминалистических методов, научные исследования и мнения узбекских и зарубежных ученых по совершенствованию криминалистических методов, научно обоснованные предложения и рекомендации по мерам по совершенствованию криминалистических методов, направленных на раскрытие преступлений, совершаемых в киберпространстве.

**Ключевые слова:** таможенные преступления, методы криминалистики, киберпространство, уголовный процесс, кибержоуристик, социальные сети, профиль, нарушение таможенного законодательства, Уголовный кодекс, судебная экспертиза, Уголовно-процессуальный кодекс, цифровые доказательства.

## MEASURES TO IMPROVE FORENSIC METHODS USED IN SOLVING CRIMES IN THE CUSTOMS SECTOR

### ANNOTATION

This scientific article examines the issues of improving forensic methods used in solving crimes in the customs sphere. In particular, a description of forensic methods, scientific research and opinions of Uzbek and foreign scientists on improving forensic methods, scientifically based proposals and recommendations on measures to improve forensic methods aimed at solving crimes committed in cyberspace are covered.

**Key words:** customs crimes, forensic methods, cyberspace, criminal procedure, cyberforensics, social networks, profile, violation of customs legislation, Criminal Code, forensic examination, Criminal Procedure Code, digital evidence.

Bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish mexanizmi, usullari va shakllari yangicha ko'rinish tus olayotganligi sababli, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llanilayotgan kriminalistik usullarni tadqiq qilish, ularni bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish bo'yicha bojxona organlari oldiga qo'yilayotgan vazifalar va talablarga qanchalik darajada javob berishini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, hozirgi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlar eng so'nggi fan-texnika yutuqlaridan, shu jumladan raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda hamda kibermakonda sodir etilmoqda.

Jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlari orqali turli tovarlarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy ravishda olib o'tishning yuz berayotganligi, shuningdek, xalqaro Internet tarmog'i orqali, ya'ni kibermakon imkoniyatlaridan foydalangan holda valyuta qimmatliklari va narkotik moddalarni noqonuniy ravishda bojxona chegarasidan olib o'tishga oid ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilmoqda. Shu bois, yangicha usullar va shakllarda sodir etilayotgan bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llanilayotgan kriminalistik usullarning tavsifi va hozirgi zamon holatini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganib chiqib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim o'rin tutmoqda.

Bugungi kunda bir qator o'zbekistonlik va xorijlik olimlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llanilayotgan kriminalistik usullarni tadqiq qilib, ularning ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berishgan.

Xususan, o'zbekistonlik olim S.Shomirzayev bojxona organlarida surishtiruv o'tkazish masalalarini tadqiq qilib, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda kriminalistik usullarni qo'llashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan bojxona sohasidagi jinoyatlarning jinoiy-huquqiy tavsiflarini yoritib bergan.

Shuningdek, o'zbekistonlik olim S.Shomirzayev o'z tadqiqotida bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda aniqlangan bojxona sohasidagi jinoyatlar bo'yicha protsessual bayonnomalarni tuzishning kriminalistik usullarini bayonnomalar na'munalari misolida ko'rsatib bergan. Bu tadqiqoti orqali olim bojxona sohasidagi jinoyatlarni isbot qilishda dalillarning maqbulligini ta'minlashga yordam beradigan kriminalistik ish uslublarini ochib bergan [1, B.4-126].

Shu bilan birga, o'zbekistonlik olimlar Yu.S.Pulatov va R.A.Abdukaimovlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda kriminalistik ish uslublarining taktik xususiyatlarini tadqiq qilishgan. Ular o'z tadqiqotlarida asosan, bojxona amaliyotida ayrim jinoyat-protsessual harakatlarni o'tkazishning kriminalistik uslubiyoti, insonni tashqi qiyofasi belgilari asosida tasvirlash, izlar va buyumlarni kriminalistik usulida tasvirlash, ballistik obyektlarni tasvirlash, portlovchi moddalarni tasvirlash, hujjatlarni tavsiflash kabi kriminalistik ish uslublarini yoritib berishgan [2, B.5-66].

Bundan tashqari, o'zbekistonlik olim A.T.Achilov bojxona sohasidagi jinoyatlarning bir yo'nalishi bo'lgan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni jinoiy-huquqiy tavsiflashda kriminalistik ish uslublaridan to'g'ri foydalanish, dalillar maqbulligini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatib o'tgan.

Shuningdek, olim o'z tadqiqotida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni jinoiy-huquqiy tavsiflashda sud-tergov amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan [3, B.13-24].

Rossiyalik olim V.G.Makarenkoning fikriga ko'ra, bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni muvaffaqiyatli fosh etish uchun yangi turdagi kriminalistik ilmiy-texnika vositalari va metodlarini uzluksiz ravishda joriy etib borish muhim o'rin tutadi. Olim o'z tadqiqotida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining hujjatlarini tadqiq qilishda, asosan qalbakilashtirish belgilarini aniqlashda kriminalistik texnika vositalarini takomillashtirib borish zurrur ekanligini ta'kidlab o'tadi. Xususan, kniminalistik texnika vositalarini quyidagi kriminalistik tadqiqot yo'nalishlarida takomillashtirish zarurligini aytib o'tgan:

- kriminalistik trasologiya;
- kriminalistik xatshunoslik;
- materiallar, ashyolar va predmetlarni kriminalistik tadqiq qilish;
- kriminalistik fotografiya, audio-video yozuvlarni tadqiq qilish;
- kriminalistik fonoskopiya;
- kriminalistik bojxona hisoblari [4, B.138].

Tadqiqotchi sifatida rossiyalik olim V.G.Makarenkoning fikriga qo'shilaman. Chunki, bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish mexanizmi, usullari va shakllari takomillashib bormoqda. Shu bois, ularni samarali fosh etish maqsadida kriminalistik ish uslublarini ham takomillashtirib borish, bu sohadagi jinoyatlarni samarali fosh etish imkoniyatini beradi.

Rossiyalik olim O.A.Berzin o'z tadqiqoti davomida bojxona organlari faoliyatida sud-ekspertiza vositalari tizimini shakllantirishning asosiy yondashuvlari, bojxona sohasida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, ochish va tergov qilishda sud-ekspertiza qoidalari va tavsiyalarining o'rni va ahamiyatini yoritib bergan.

Xususan, ushbu rossiyalik olim bojxona sohasidagi jinoyatlarni muvaffaqiyatli fosh etishda kriminalistik texnika vositalari eng samarador vositalardan biri ekanligini ta'kidlab, o'z fikrini kriminalistik texnika vositalarini qo'llash natijasida aniq fosh etilgan jinoyat ishlari misolida isbotlab bergan [1, B.3-6].

AQSHlik olimlar E. Lopez, Jonathan G. McGrath, Veronica G. Taylorlar uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlik jinoyatlarini fosh etishda sud-tibbiyot ekspertizasining ahamiyatini tadqiq qilishgan. Ularning fikriga ko'ra, sud-tibbiyot ekspertizasi, asosan, takror sodir etiladigan jinoyatlarga e'tibor qaratgan holda, jinoyatni aniqlash, oldini olish, tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortishga yordam berish uchun jinoiy surishtiruv siklida va jinoiy ishlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va ishlatishni o'z ichiga oladi. Sud-tibbiyot ma'lumotlarini jinoyat tahliliga kiritish, shuningdek, jinoyat belgilarini, jinoyatlar o'rtasidagi aloqalarni va tendensiyalarni aniqlashga yoki jinoiy faoliyatga tegishli boshqa ma'lumotlarni o'zaro bog'lashga yordam beradi.

Xususan, AQSHlik olimlarning fikriga ko'ra, sud-tibbiyot ekspertizasi yordamida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlangan va ashyoviy dalil sifatida ushlab qolingan noqonuniy muomaladagi dori vositalarining fizik yoki kimyoviy profillari, shu jumladan sintetik opioidlar va konstruktor preparatlari yoki kimyoviy tuzilmalarni doimiy o'zgarib turadigan analoglari bilan bog'lash jinoiy tashkilotlarning yashirin uyushgan faoliyatini fosh qilishga yordam beradi [6, B.1-8].

Tadqiqotchi sifatida AQSHlik olimlarning sud-tibbiyot ekspertizasining ahamiyati haqidagi fikrlariga qo'shilaman. Chunki bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda ham sud-tibbiyot ekspertisasi keng miqyosda qo'llaniladi va bojxona sohasidagi jinoyatlarni muvaffaqiyatli fosh etishga katta yordam beradi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib aytganda, kriminalistik ish uslublari bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekistonlik olimlar A. Achilov, I.Astanov, M.Do'stovlar o'zlarining tadqiqotlarida bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda kriminalistik metodlarni tadqiq qilib, metod tushunchasini va bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llaniladigan kriminalistik metodlarni tavsifini yoritib berganlar.

Xususan, ushbu o'zbekistonlik olimlarning fikriga ko'ra, metod – deganda ma'lum maqsadga erishish uchun tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalarni tadqiq etish usullari tushuniladi hamda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda asosan quyidagi kriminalistik usullar qo'llanilishini ta'kidlab o'tganlar:

**Kuzatuv** – predmetlar va hodisalarni faol bir maqsadga qaratilgan reja asosida va bevosita qabul qilish kuzatuv orqali amalga oshiriladi. Kuzatuv amaliy faoliyatda tintuv va boshqa tergov harakatlarini amalga oshirish chog'ida alohida ahamiyatga ega. Kuzatuv vazifalari predmet yoki hodisa xarakteriga qarab belgilanadi. Bir holatda – qidirilayotgan narsani topish, ikkinchi holatda uning aniq xossalari va belgilarini aniqlash, uchinchi holatda – tintuv va boshqa tergov xatti-harakatlari o'tkazishda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi xulq-atvorini tahlil qilish zarur.

**Qiyoslash** – tashqi dunyoni idrok qilishning asosiy usullaridan biri. Qiyoslash, umuman identifikatsiyalash maqsadida o'tkazilayotgan tadqiqotda alohida ahamiyatga ega. Qiyoslash metodini qo'llash mantiqning ikki qoidaga javob berishi kerak:

1) obyektiv voqelikning bir xilda predmetlari va hodisalarini, bir turdagi tushunchalarni qiyoslashga yo'l qo'yiladi;

2) qiyoslashda muhim ahamiyatga molik belgilardan foydalaniladi.

**O'lchash** - bu metod yordamida o'lchanadigan buyum va o'lchov birligi, miqyosi yoki etaloni (metr, kilogramm, minut, litr, harorat, rang kabilar) o'rtasidagi nisbat orqali belgilanadi. Aniq o'lchovga ega bo'lish uchun maxsus asbob va anjomlardan foydalaniladi. O'lchov ilmiy va amaliy faoliyatda muntazam qo'llaniladi. U kriminalistikada hodisa yuz bergan joyni va ashyoviy dalillarni o'rganishda, ekspertiza va boshqa tergov harakatlari o'tkazishda foydalaniladi.

**Tasvirlash** – mazkur metod vositasida tadqiq etilayotgan obyektlar belgilari va xossalari tasvirlab yoziladi (sanaladi). Bu uslub obyekt haqida to'la tasavvur hosil qilish yoki alohida tomonlari, tarkibiy qismlari to'g'risida xulosa qilish imkoniyatini beradi. Tasvirlash sifatli va miqdorli, tuzilmali va funksional, to'la va to'liq emas va h.k. bo'lishi mumkin. U og'zaki va yozma shaklda, shu jumladan raqam, rasm, ramz va boshqacha tarzda amalga oshiriladi

**Eksperiment** – uning zaminida tekshirilayotgan hodisani o'rganish va uning boshqa hodisalar bilan aloqasini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ilmiy asoslangan tajriba yotadi. Bunda tekshirilayotgan hodisa sun'iy ravishda iloji boricha to'la va aniq takrorlanadi. Eksperiment kuzatuv bilan birga olib boriladi, ammo bu mazkur metodlar aynan bir xil ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Eksperimentning o'ziga xos belgisi kuzatilayotgan hodisa jarayoniga eksperiment o'tkazuvchining faol aralashuvidan iborat.

**Modellashtirish** – bu metodning mohiyati obyektning o'xshash model orqali bilishdan iborat, bunda tadqiq qilinayotgan obyektning asosiy belgilari, xususiyatlari orqali tiklanadi. Model moddiy va ideal bo'lishi mumkin. Har ikki xil model ham bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda keng foydalaniladi.

O'zbekistonlik olimlar A. Achilov, I.Astanov, M.Do'stovlarning fikriga ko'ra, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda yuqoridagi umumiy kriminalistik metodlardan tashqari, quyidagi xususiy kriminalistik metodlar ham keng qo'llaniladi: fotografik metodlar (rang ajratuvchi kontrastlovchi, fotometrik va xokazo), trasologik tadqiqotlar metodlar (taqqoslash uchun eksperimental namunalar olish, izlarning relyefli xarakteristikalarini olish, iz hosil bo'lish jarayonlarini o'rganish), balistika, xatshunoslik, gabitologiya, sotsiologik, fizikaviy va kimyoviy, statistik, matematik, kibernetik, antropologik va pantropometrik, vokalografiya va akustika hamda kriminalistik texnikaning boshqa sohalarining metodlari kiradi [7, B.16-22].

Rossiyalik olim L.G.Shapironing fikriga ko'ra, so'nggi vaqtlarda jamiyat hayotida jinoyatchilikning raqamli makonda (kibermakon) sodir etilishi faollashayotganligi, turli xildagi jinoyatlarni sodir etishning yangi raqamli masofaviy usullari va mexanizmlari vujudga kelayotganligi, bu esa o'z navbatida shartli ravishda jinoiy faoliyatning raqamli izlarini vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday raqamli izlar jinoiy voqea, hodisalar haqidagi moddiy jismlarda yaratilgan, saqlangan, qayta ishlangan va jo'natilgan kompyuter axborotiga nisbatan kriminalistik nuqtai-nazardan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kibermakonda raqamli jinoiy faoliyatga muvaffaqiyatli qarshi kurashishni tashkil etish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni elektron-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy tavsiyalar bilan ta'minlash zarurligi oshib bormoqda. Shu bois, raqamli makonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi samarali kurashishni tashkil etish maqsadida kriminalistik metodikani (usullarni) quyidagi 2 asosiy yo'nalishda takomillashtirish zarur hisoblanadi:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mustaqil bo'limlarni tashkil etish;

2. Raqamli texnologiyalar yordamida sodir etilayotgan alohida turdagi jinoyatlarni tekshirish bo'yicha xususiy kriminalistik usullar tizimida kibermakonda sodir etilayotgan harakatlarni tekshirish bo'yicha qo'shimcha kriminalistik ish usullarini ishlab chiqish [8, B.225-227].

Rossiyalik olim M.V.Solovyevaning fikriga ko'ra, bugungi kunda iqtisodiy xavfsizlik, kredit va audit, bank ishi, moliya sohalarida kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va tergov qilish bo'yicha mutaxassislariga talab katta ekanligini va Internet tarmog'ida sodir etilayotgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda tergov qilishning yangi kriminalistik metodlarini faol qo'llashga bo'lgan talab oshib bormoqda.

Xususan, uning fikriga ko'ra, bunday zamonaviy kriminalistik metodlardan biri bu **"kiberforenzik"** (inglizcha *"cyber forensics"*) bo'lib, uning mohiyati jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida foydalanish mumkin bo'lgan raqamli ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va sharhlash jarayonini anglatadi. Rossiyalik olim N.N.Fedotov ushbu kriminalistik metod tushunchasiga ta'rif berib, **"kiberforenzika"** – bu raqamli isbotlashda iz hosil qilish bilan bog'liq bo'lgan kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishga oid amaliy bilimlarni o'z ichiga oluvchi kompyuter kriminalistikasi hisoblanadi. Ya'ni ushbu metod kompyuter tizimida jinoyatchilar tomonidan qoldirilgan raqamli izlarni o'rganishga mo'ljallangan kriminalistik usul hisoblanadi. "kiberforenzika" kompyuterning qattiq disklarini tahlil qilish, o'chirib tashlangan fayllarni qidirish, loglarni o'rganish va boshqa metodlarni o'z ichiga oladi.

**"Kiberforenzika" kriminalistik metodi bir nechta quyidagi bosqichlarga bo'linadi:**

1. **Ma'lumotlarni yig'ish** – bu birinchi bosqich bo'lib, elektron qurilmalar, mobil qurilmalar, tarmoq qurilmalari va kompyuter qurilmalaridan raqamli ma'lumotlarni ko'chirib nusxa olish va yig'ishni o'z ichiga oladi.

**2. Ma'lumotlarni tahlil qilish** – kiberforenzika mutaxassislari ma'lumotlarni tahlil qilish uchun maxsus vositalar va usullardan foydalanadilar. Ular o'chirib tashlangan fayllar, yashirilgan va o'zgartirilgan ma'lumotlarni izlaydi.

**3. Ma'lumotlarni sharhlash** – ushbu bosqichda kiberforenzika mutaxassislari ma'lumotlarni sharhlaydilar. Ushbu maqsadda ular o'zlarining bilimlari va tajribalaridan foydalanadilar. Ular ma'lumotlar elementlari o'rtasidagi turli bog'liqliklarni va ularning jinoyat bilan aloqadorligini qidiradilar va aniqlaydilar.

**4. Ma'lumotlarni taqdim etish** - ushbu bosqichda kiberforenzika mutaxassislari o'zlarining tadqiqot natijalarini huquqiy maqsadlarda foydalanish (shaxslarning harakatlariga huquqiy baho berish) uchun hisobot ko'rinishida taqdim etadilar.

Mazkur kriminalistik metodni qo'llash natijasida mutaxassis jinoyatchi kompyuter tizimidan qanday ma'lumotlarni olgan va ulardan qanday foydalangani to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Keyingi muhim kriminalistik metodlardan biri bu **“Ijtimoiy tarmoqlarni monitoring qilish” metodi** bo'lib, mazkur kriminalistik metod yordamida huquqni muhofaza qiluvchi organlar maxsus dasturlar orqali ijtimoiy tarmoqlarda jinoyatchilarning faol harakatlarini kuzatish va ularning rejalari va niyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu metod jinoyatlarni oldini olish va jinoyatchilarni ertabarvaqt ushlab imkoniyatini beradi. Jinoyatlarni tergov qilishning mazkur zamonaviy kriminalistik metodlari kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi muvaffaqiyatli kurashish va ularni oldini olish imkoniyatini beradi [9, B.148-150].

Rossiyalik olim A.I.Zazulinning fikriga ko'ra, bugungi kunda jinoyat protsessida dalillarni to'plashning kriminalistik metodi sifatida raqamli ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanishning ahamiyati dolzarblashib bormoqda. Chunki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kibermakonda jinoyat harakatlarni sodir etish faollashib bormoqda [10, B.2-8].

Tadqiqotchi sifatida Rossiyalik olimlar L.G.Shapiro va M.V.Solovyeva va N.N.Fedotovlarning fikriga qo'shilaman. Chunki bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham bojxona sohasidagi jinoyatlarni kibermakon imkoniyatlaridan foydalangan holda sodir etish faollashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarni fosh etishga mo'ljallangan yangi tuzilmalarni tashkil etish va ularni kibermakonda jinoyatlarni aniqlash va fosh etishga yordam beradigan qo'shimcha yangi va zamonaviy xususiy kriminalistik metodlarni qo'llashga o'rgatish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Bojxona qo'mitasining Kontrabandaga qarshi kurashish boshqarmasi tarkibida bojxona sohasidagi kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'limini tashkil etish;

- bojxona sohasidagi kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'limini malakali mutaxassislar bilan jamlash hamda ularning faoliyatiga kibermakonda sodir etilayotgan bojxona sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etish imkoniyatini beruvchi yangi zamonaviy xususiy kriminalistik metodlarni (masalan, “Kiberforenzika”, “Ijtimoiy tarmoqlarni monitoring qilish”ni) qo'llash imkoniyatlari va sharoitlarini yaratish;

- kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarni aniqlash bo'yicha yangi zamonaviy kompyuter kriminalistikasi metodlarini qo'llash natijasida to'plangan raqamli dalillarni isbot qilish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib, “raqamli dalillar” tushunchasini kiritish va unga ta'rif berish.

Mazkur takliflarni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

- birinchidan, bugungi kunda bojxona va boshqa sohalarda jinoyatlarni sodir etishda kibermakon imkoniyatlaridan foydalanilmoqda. Ammo Bojxona qo‘mitasi tuzilmasida kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashuvchi tuzilma (bo‘lim, guruh) mavjud emas;

- ikkinchidan, Bojxona qo‘mitasi Kontrabandaga qarshi kurashish boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlarida kibermakonda sodir etilayotgan bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish va kibermakonda zamonaviy kriminalistik metodlarni qo‘llab, jinoyat belgilarini aniqlash malakasiga ega bo‘lgan tezkor xodimlar mavjud emas;

- uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni isbot qilishda foydalanish imkoniyatini beruvchi “raqamli dalillar” tushunchasi va uning izohlari hamda “raqamli dalillar”ni yig‘ish usullarini huquqiy tartibga soluvchi normalar mavjud emas.

Xulosa qilib aytganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni raqamlashtirish sharoitida bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish borasida qo‘llanilayotgan kriminalistik usullarni takomillashtirish, bunda asosiy e‘tiborni kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarni va ularning belgilarini aniqlashga qaratilgan kriminalistik usullarni jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotiga joriy etishni taqazo etmoqda.

**REFERENCES. IQTIBOSLAR. ЧОСКИ.**

1. Shomirzayev S., Axlimirzayev A. “Bojxona organlarida jinoyatlar yuzasidan surishtiruv o‘tkazish tartibi”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent shahri. 2020-y. 4-126-betlar.
2. Pulatov Yu.S., Abdulkaimov R.A. “Bojxona tizimida kriminalistik uslubiyotning o‘ziga xos xususiyatlari”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent shahri. 2008-y. 5-66-betlar.
3. Achilov A.T. “[Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish](#)”. Dissertatsiya avtoreferati. 2021-y. 13-24-betlar.
4. Makarenko V.G. “Общая характеристика мер по совершенствованию техникриминалистического обеспечения в таможенных органах Российской Федерации”. Nauchnaya statya. Yuridicheskiy universitet Samarskogo universiteta. Tom № 5, № 2. g. 2019. Str. 138.
5. Berzin O.A. “Ispolzovaniye kriminalisticheskix sredstv v tamojennoy deyatelnosti”. Dissertatsiya. Novgorod. g.2002. Str. 3-6.
6. E. Lopez, Jonathan G. McGrath, Veronica G. Taylor. “Using Forensic Intelligence To Combat Serial and Organized Violent Crimes”. National institute of justice journal. 21.10.2020. P. 1-8.
7. Achilov A., Astanov I., Do‘stov M. “Bojxona organlarida kriminalistika”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2019. 16-22-betlar.
8. Shapiro L.G. “Osnovnie napravleniya razvitiya kriminalisticheskoy metodiki v usloviyax sifrovizatsii i globalizatsii prestupnosti”. Nauchnaya statya. g. 2021. Str. 225-227.
9. Solovyeva M.V. “Sovremennye metodi rassledovaniya prestupleniy, sovershennix s ispolzovaniyem informatsionnix sistem”. Nauchnaya statya. Forum molodix uchenix. 6 (82). g. 2023. Str. 148-150.
10. Zazulin A.I. ““Правовые и методологические основы использования сфрвой информации в доказывании по уголовному делу””. Avtoreferat dissertatsii. g. 2018. Str. 2-8.